O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI



2023- yil
IYUL

**Iste’mol narxlari indeksi (INI)** iste’mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## IYUL OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning iyuliga nisbatan




2023- yilning iyul oyida oylik INI **99,8 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **103,3 %** ni tashkil etdi. INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati joriy yilning yanvar-iyulida **0,5 %** ga yetdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning iyuliga nisbatan) yig‘ma INI **108,9 %** darajasida qayd etildi.

### Yanvar-iyul oyidagi o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati, % da



## 2023- yilning iyun oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[1]




## 2023- yilning iyun oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[2]




[1]) https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb

[2]) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e’lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste’mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIni hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIni shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi https://lib.stat.uz .

2023- yilning iyulida tovarlar bo‘yicha INI oy davomida **99,7 %** ni, xizmatlar bo‘yicha esa **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **103,3 %** va **103,4 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko‘rsatkich **109,2 %** va **108,2 %** ni tashkil etdi.

## TOVARLAR



| | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|---|
| o‘tgan oyga nisbatan | 99,5 | 99,5 | 99,7 | 99,8 | 99,7 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 105,0 | 104,5 | 104,2 | 107,3 | 103,3 |
| o‘tgan yilning iyuliga nisbatan | 113,7 | 114,7 | 112,0 | 114,0 | 109,2 |

## XIZMATLAR



| | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|---|
| o‘tgan oyga nisbatan | 100,2 | 100,4 | 100,2 | 100,3 | 100,5 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 105,6 | 103,6 | 104,3 | 103,5 | 103,4 |
| o‘tgan yilning iyuliga nisbatan | 112,7 | 113,0 | 107,8 | 106,9 | 108,2 |

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro‘yxatga olish har oyning **10**- sanasidan **20**- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni yig‘ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig‘ida narxlarni ro‘yxatga olish har bir tovar va xizmat bo‘yicha bir marta amalga oshiriladi va qo‘shni davrlar uchun ro‘yxatga olish oralig‘i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIni hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta’siri chiqarib tashlanadi.

Narxlar o‘zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to‘plami uchta yirik guruhga bo‘lingan.




oziq-ovqat mahsulotlari    nooziq-ovqat mahsulotlar    xizmatlar

**iyul oyida o‘tgan oyga nisbatan**




**iyul oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**




**iyul oyida o‘tgan yilning iyuliga nisbatan**




2023- yilning iyulida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **99,1 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,3 %** ni va xizmatlar bo‘yicha **100,5 %** ni tashkil etdi. O‘tgan yilning dekabriga nisbatan INI oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha **103,1 %**, nooziq-ovqat mahsulotlarda **103,4 %** va xizmatlar bo‘yicha **103,4 %** darajasida qayd etildi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **110,7 %** va **107,3 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,2 %** darajasida qayd etildi.

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




## NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR




## XIZMATLAR




Iste’mol narxlarining o‘zgarishi kuzatuvlari doirasida har oyda **10 mingdan** ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko‘rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

2023- yilning iyulida oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha qisqa muddatli INI bir nechta omillar qatorida, mavsumiylik ta’sirida ham shakllandi. Bozorning yangi hosil bilan to‘yinishi sababli ayrim meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish qayd etilmoqda va buning natijasi oziq-ovqat mahsulotlarining INI pasayishida aks etmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yillik INI joriy yilning yetti oyi davomida yanvar oyidagi 115,4 % dan iyul oyida 110,7 % gacha pasaydi. Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo‘yicha mazkur ko‘rsatkichning pasayishi sezilarsiz darajada bo‘ldi.

# MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da

iyul

## YIG‘MA INI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

### o‘tgan oyga nisbatan







### o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







### o‘tgan yilning iyuliga nisbatan







Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o‘zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning iyulidagi qisqa muddatli INI **100,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich **103,7 %** darajasida, 2022- yilning iyuliga nisbatan esa – **109,0 %** darajasida qayd etildi.

iyul oyida o‘tgan oyga nisbatan




2023- yilning iyulida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi hisobiga oylik yig‘ma INI **0,39 f.d.** pastladi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlarning narx o‘zgarishlari jami hisobda yig‘ma ko‘rsatkichni **0,23 f.d.** oshirdi.

INIni shakllantirish quyidagi ikkita ma’lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo‘jaliklarida o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma’lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste’mol xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma’lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’siri pozitsiyaning narx o‘zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

*) foiz darajasida

# ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIRI TUZILMASI

Ta’siri, f.d. | Umumiy ta’sirdagi ulushi, % da

**iyul oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**







**iyul oyida o‘tgan yilning iyuliga nisbatan**







oziq-ovqat mahsulotlari | nooziq-ovqat mahsulotlar | xizmatlar

Oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarning 2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’sirining **40 %** dan ortig‘i to‘g‘ri keldi (bir yil avval ushbu ko‘rsatkich **50,9 %** ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta’siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo‘ldi va uning ulushi **23,7 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatdagi yig‘ma INI o‘sish sur’ati asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishi bilan bog‘liq (**50,8 %**).

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a’zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste’mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

**iyul oyida o‘tgan oyga nisbatan***

### I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 98,6 | 99,0 | 98,9 | 99,0 |

### II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 100,3 | 100,3 | 100,4 | 100,5 |

### III. Kiyim va poyabzal

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 100,1 | 100,2 | 100,3 | 100,2 |

### IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 100,4 | 100,1 | 100,3 | 100,5 |

### V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 100,3 | 100,6 | 100,7 | 100,3 |

### VI. Sog‘liqni saqlash

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 100,7 | 100,4 | 100,5 | 100,5 |

* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

# O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

iyul oyida o‘tgan oyga nisbatan

### Transport

VII

| | |
|---|---|
| 2020 | 101,3 |
| 2021 | 100,8 |
| 2022 | 102,2 |
| 2023 | 100,8 |

### Axborot va aloqa

VIII

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,1 |
| 2021 | 100,3 |
| 2022 | 100,1 |
| 2023 | 100,0 |

### Dam olish, sport va madaniyat

IX

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,2 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 100,4 |
| 2023 | 100,3 |

### Ta’lim sohasidagi xizmatlar

X

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,0 |
| 2021 | 100,1 |
| 2022 | 100,1 |
| 2023 | 100,1 |

### Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari

XI

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,2 |
| 2021 | 100,7 |
| 2022 | 100,8 |
| 2023 | 100,6 |

### Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar

XII

| | |
|---|---|
| 2020 | 102,2 |
| 2021 | 99,4 |
| 2022 | 102,9 |
| 2023 | 100,1 |

### Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar

XIII

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,3 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 100,7 |
| 2023 | 100,3 |

2023-yilning iyulida bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INIda keskin o‘zgarishlar kuzatilmadi. Uning diapazoni **99,0 %** dan ( “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” I bo‘lim) **100,8 %** gacha (“Transport” VII bo‘lim) chegarada joylashdi.

iyul oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 104,8 | 104,7 | 107,7 | 102,7 |

I

### Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 104,5 | 106,1 | 104,9 | 106,2 |

II

### Kiyim va poyabzal

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 103,5 | 101,9 | 105,0 | 102,3 |

III

### Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 102,8 | 103,6 | 102,6 | 102,4 |

IV

### Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 104,8 | 104,1 | 107,9 | 103,9 |

V

### Sog‘liqni saqlash

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 107,3 | 105,0 | 107,4 | 106,2 |

VI

### Transport

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 102,5 | 105,4 | 105,8 | 104,0 |

VII

### Axborot va aloqa

| 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|
| 101,3 | 101,8 | 102,0 | 99,5 |

VIII

*Davomi*

iyul oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

**Dam olish, sport va madaniyat**




**Ta’lim sohasidagi xizmatlar**




**Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari**




**Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar**




**Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar**




“Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) va “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yilning yanvar-iyulidagi INI o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan past darajada bo‘ldi.

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.*

# O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

iyul oyida o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

| Bo‘lim | | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| I | Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar | 115,3 | 116,3 | 110,0 |
| II | Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari | 110,5 | 109,6 | 112,1 |
| III | Kiyimlar va poyabzal | 106,7 | 108,7 | 106,5 |
| IV | Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari | 106,4 | 103,9 | 104,9 |
| V | Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish | 107,8 | 111,4 | 108,7 |
| VI | Sog‘liqni saqlash | 110,4 | 111,0 | 115,4 |
| VII | Transport | 112,6 | 113,8 | 107,8 |
| VIII | Axborot va aloqa | 103,7 | 103,1 | 99,3 |
| IX | Dam olish, sport va madaniyat | 107,9 | 114,6 | 110,9 |
| X | Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 103,9 | 107,8 | 102,8 |
| XI | Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari | 114,8 | 118,6 | 126,0 |
| XII | Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar | 100,7 | 104,2 | 101,5 |
| XIII | Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar | 110,9 | 114,1 | 110,6 |

2023- yilning iyul oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarda (**99,3 %**) kuzatilgan bo‘lsa, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo‘yicha INI **126,0 %** darajasida qayd etildi.

### iyul oyida o‘tgan oyga nisbatan

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go‘sht va go‘sht mahsulotlari**




**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**




**Yog‘lar va moylar**




**Mevalar va yong‘oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**




2023-yilning iyulida “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**92,6 %**), “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**98,5 %**), “Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum” (**99,0 %**), “Yog‘lar va moylar” (**99,0 %**), “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**99,7 %**), “Spirtsiz ichimliklar” (**99,9 %**), guruhida 100 % ko‘rsatkichdan past qisqa muddatli INI qayd etildi.

Shu bilan birga, shakarning qisqa muddatli INI **95,8 %** ni, tuxumda **96,0 %** ni, grechkada **96,4 %** ni, unda **97,9 %** ni, sut va choyda **99,8 %** ni, sharbatlar va salqinlantiruvchi ichimliklarda **99,9 % ni** tashkil etdi.

# "OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR" BO'LIMI (I), % DA

iyul oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan

### Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




### Go'sht mahsulotlari




### Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




### Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




### Yog'lar va moylar




### Mevalar va yong'oqlar




### Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




### Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




### Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari




### Spirtsiz ichimliklar






Yog'-moy mahsulotlarining joriy yilning iyulidagi o'rtacha narxlar darajasi 2022- yilning yakuniga nisbatan pastligicha qoldi. "Yog'lar va moylar" guruhi bo'yicha INI 2023- yilning yanvar -iyulida **92,5 %** ni tashkil etdi.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar bo'yicha INI joriy yilning yanvar-iyulida **100,0 %** lik chegaradan **11,3** foiz bandga past darajada qayd etildi. Bu asosan mavsumiylik omili bilan bog'liqdir.

iyul oyida o'tgan yilning iyuliga nisbatan

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go'sht mahsulotlari**








**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**








**Yog'lar va moylar**




**Mevalar va yong'oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**




2023- yilning iyulida "Go'sht mahsulotlari", "Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum" va "Mevalar va yong'oqlar" guruhlaridan boshqa barcha guruhlarda yillik nisbatdagi INI o'tgan yilning iyulidagi mos ko'rsatkichga qaraganda past darajada bo'ldi.

Shu bilan birga, yog'-moy mahsulotlari narxlarining o'rtacha darajasi 2022- yilning iyulidagi ko'rsatkichdan pastligicha qoldi.

# 2023- YILNING IYULIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

## Guruch va guruch oqshog'i




## Bug'doy uni




## Suyakli mol go'shti




## Qo'y go'shti




## Sut




## Tuxum




## Kungaboqar yog'i




## Shakar



# 2023- YILNING IYULIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning iyuliga nisbatan






narxlari oshgan tovarlar
narxlari pasaygan tovarlar

Joriy yilning iyul oyida bir qator sabzavotlar narxida pasayish kuzatildi. Narxlarida pasayish kuzatilgan tovarlarning INI diapazoni **62,4 %** dan (baqlajon) **96,1 %** gacha (banan) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan kuzatiladigan sabzavot turlari orasida bodring narxida eng yuqori pasayish kuzatildi. Bulg‘or qalampir yillik nisbatda eng past INI qayd etilgan mahsulot bo‘ldi.






Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkalilar, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, yog‘lar va moylar, sut boshqa sut mahsulotlari va tuxum narxlarining pasayishi hisobiga joriy yilning iyunidagi qisqa muddatli yig‘ma INI jami hisobda **0,46 f.d** pastladi. Go‘sht mahsulotlari, baliq va boshqa dengiz mahsulotlari, mevalar va yong‘oqlar narxlarining oshishi Inflyatsion omil sifatida xizmat qilib, ularning hisobiga yig‘ma ko‘rsatkich **0,06 f.d.** yuqoriladi.

2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’ati tuzilmasida go‘sht mahsulotlari (**+0,53 f.d.**), mevalar va yong‘oqlar (**+0,42 f.d.**) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**+0,20 f.d.**) ta’siri salmoqli bo‘ldi. Yog‘-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar narxining pasayishi yig‘ma INI **0,70 f.d.** qisqarishiga sabab bo‘ldi.

iyul — o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan

## SPIRTLI ICHIMLIKLAR




## TAMAKI MAHSULOTLARI




| | o‘tgan oyga nisbatan | | | | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | | | | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| **VINO** | 100,3 | 100,1 | 100,3 | 100,4 | 102,5 | 102,9 | 103,6 | 104,4 | 106,2 | 108,2 | 108,7 |
| **AROQ** | 100,0 | 100,2 | 100,3 | 100,2 | 104,2 | 105,2 | 105,7 | 106,7 | 111,0 | 112,6 | 113,5 |
| **KONYAK** | 100,2 | 100,2 | 100,5 | 100,6 | 103,2 | 105,1 | 102,8 | 106,8 | 107,3 | 107,8 | 111,0 |
| **PIVO** | 100,4 | 100,3 | 100,6 | 100,1 | 103,9 | 103,8 | 104,6 | 105,4 | 106,0 | 107,4 | 111,5 |
| **SIGARET** | 100,8 | 100,7 | 100,2 | 101,1 | 108,1 | 109,2 | 104,3 | 106,9 | 114,8 | 107,0 | 112,1 |
| **BOSHQA TAMAKI MAHSULOTLARI** | 100,0 | 100,4 | 100,5 | 100,8 | 103,8 | 110,6 | 105,3 | 104,9 | 116,6 | 106,9 | 110,5 |

**iyul** — o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan

## KIYIM




## POYABZAL




| o'tgan oyga nisbatan | | | | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | | | | o'tgan yilning iyuliga nisbatan | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR | | | | | | | | | | |
| 100,1 | 100,2 | 100,1 | 100,1 | 103,4 | 101,9 | 105,3 | 101,8 | 107,5 | 108,2 | 106,3 |
| USTKI KIYIM | | | | | | | | | | |
| 100,2 | 100,3 | 100,3 | 100,3 | 103,6 | 101,9 | 104,8 | 102,4 | 107,0 | 108,7 | 106,7 |
| BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA | | | | | | | | | | |
| 100,1 | 100,2 | 100,5 | 100,2 | 103,0 | 101,6 | 105,0 | 102,0 | 105,7 | 108,8 | 105,0 |
| KIYIMLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH | | | | | | | | | | |
| 100,1 | 100,5 | 100,3 | 100,3 | 105,7 | 104,6 | 106,0 | 105,8 | 110,5 | 113,1 | 113,4 |
| BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR | | | | | | | | | | |
| 100,1 | 100,2 | 100,2 | 100,1 | 102,6 | 101,6 | 105,3 | 101,8 | 105,4 | 108,4 | 105,8 |
| POYABZALLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH VA IJARAGA BERISH | | | | | | | | | | |
| 100,6 | 100,4 | 100,2 | 100,9 | 109,3 | 105,3 | 105,9 | 107,4 | 116,1 | 113,5 | 116,9 |

Joriy yilning iyulida "Kiyim va poyabzal" (III) bo'limida INI tebranishlari **99,6 %** dan (o'gil bolalar uchun chulki-paypoq buyumlari) **101,9 %** gacha (ayollar uchun futbolkalar) atrofida joylashdi.

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*



| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | | | |
| 2021- yil | 100,7 | 102,3 | |
| 2022- yil | 100,5 | 102,1 | 108,7 |
| 2023- yil | 100,3 | 101,3 | 123,7 |

*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA’MIRLASH VA QO‘RIQLASH



| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 101,0 | 106,9 | |
| 2021- yil | 100,3 | 103,8 | 109,1 |
| 2022- yil | 100,8 | 107,2 | 110,3 |
| 2023- yil | 101,4 | 106,4 | 111,1 |

## SUV TA’MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,3 | 101,1 | |
| 2021- yil | 100,0 | 131,7 | 143,5 |
| 2022- yil | 100,2 | 101,8 | 102,5 |
| 2023- yil | 100,5 | 102,2 | 102,6 |

## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 100,0 | |
| 2021- yil | 100,0 | 100,0 | 100,1 |
| 2022- yil | 100,0 | 100,1 | 100,1 |
| 2023- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida asosiy turdagi kommunal xizmatlar bo‘yicha tariflar joriy yilning iyulida barqarorlikni saqlab qoldi. Ushbu fonda qator hududlarda ko‘p xonadonli kvartiralarga xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov qiymatida o‘sish kuzatildi (respublika bo‘yicha o‘rtacha **2,1 %**, shu jumladan poytaxtda **13,6 %**).

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash uchun materiallar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning iyulida mos ravishda **101,1 %** va **102,6 %** ni tashkil etdi.

**iyul**

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,1 | 102,3 | |
| 2021- yil | 100,4 | 103,5 | 106,8 |
| 2022- yil | 100,6 | 107,5 | 110,6 |
| 2023- yil | 100,3 | 103,3 | 106,6 |

## MAISHIY USKUNALAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,3 | 103,3 | |
| 2021- yil | 101,2 | 106,0 | 109,1 |
| 2022- yil | 100,5 | 105,9 | 109,0 |
| 2023- yil | 100,6 | 103,7 | 107,6 |

## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,2 | 103,6 | |
| 2021- yil | 100,2 | 101,9 | 106,6 |
| 2022- yil | 100,7 | 108,4 | 112,5 |
| 2023- yil | 100,2 | 103,6 | 108,0 |

## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,3 | 104,4 | |
| 2021- yil | 100,6 | 103,5 | 106,0 |
| 2022- yil | 100,7 | 106,8 | 109,7 |
| 2023- yil | 100,9 | 103,9 | 107,4 |

## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,4 | 103,7 | |
| 2021- yil | 100,6 | 103,1 | 107,1 |
| 2022- yil | 100,7 | 106,1 | 109,5 |
| 2023- yil | 99,9 | 102,7 | 106,3 |

## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,7 | 110,0 | |
| 2021- yil | 100,7 | 104,9 | 109,1 |
| 2022- yil | 101,0 | 110,1 | 114,1 |
| 2023- yil | 100,3 | 105,0 | 112,7 |

Joriy yilning iyulida “Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **98,9 %** dan (zanglamaydigan po‘latdan yasalgan oshxona priborlari) **103,3 %** gacha (maishiy priborlarni ta’mirlash va o‘rnatish) oraliqda joylashdi.

**iyul**

## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,6 | 108,4 | |
| 2021- yil | 100,4 | 103,8 | 108,5 |
| 2022- yil | 100,6 | 108,1 | 111,6 |
| 2023- yil | 100,2 | 106,8 | 116,2 |

## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,5 | 106,3 | |
| 2021- yil | 100,3 | 104,5 | 111,6 |
| 2022- yil | 100,5 | 107,8 | 112,6 |
| 2023- yil | 100,6 | 106,6 | 115,3 |

## STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 102,1 | 103,6 | |
| 2021- yil | 100,0 | 107,8 | 111,6 |
| 2022- yil | 100,2 | 104,1 | 106,9 |
| 2023- yil | 101,0 | 106,5 | 110,7 |

## SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,4 | 107,1 | |
| 2021- yil | 100,4 | 108,0 | 114,8 |
| 2022- yil | 100,1 | 106,1 | 109,3 |
| 2023- yil | 100,8 | 103,6 | 115,4 |

“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha joriy yilning iyul oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,3 %** dan (shpritslar) **101,4 %** gacha (diagnostika vizualizatsiyasi xizmatlari) oraliqda joylashdi.

Bundan tashqari, ko‘rish yordamchi mahsulotlar (**99,5 %**) hamda antigistamin dorilar va tibbiy diagnostika mahsulotlari (**99,7 %**) narxlarida oy davomida 100 % lik darajadan past INI qayd etildi.

**iyul**

## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,1 | 108,1 | |
| 2021- yil | 100,0 | 100,7 | 101,3 |
| 2022- yil | 100,1 | 108,4 | 108,8 |
| 2023- yil | 100,0 | 101,3 | 101,9 |

## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 101,5 | 99,1 | |
| 2021- yil | 101,8 | 108,6 | 118,5 |
| 2022- yil | 104,4 | 107,5 | 121,0 |
| 2023- yil | 101,0 | 103,7 | 100,9 |

## YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 101,4 | 104,9 | |
| 2021- yil | 99,8 | 102,9 | 109,4 |
| 2022- yil | 100,2 | 103,2 | 106,8 |
| 2023- yil | 100,9 | 105,5 | 117,9 |

## TOVARLARNI TASHISH BO'YICHA XIZMATLAR




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 104,3 | |
| 2021- yil | 100,6 | 103,3 | 108,8 |
| 2022- yil | 100,2 | 102,0 | 106,7 |
| 2023- yil | 100,5 | 102,0 | 117,2 |

2023- yilning iyulida o'tgan oydagi kabi respublikaning barcha hududlarida benzin narxlari oshdi. Ushbu yoqilg'i turida INI mamlakat bo'yicha o'rtacha **102,0 %** ni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari uchun gaz yoqilg'isi bo'yicha qisqa muddatli INI joriy yilning iyulida **100,2 %** ni, shu jumladan, propanda **100,8 %**, metanda **99,97 %** ni tashkil etdi.

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar oy davomida **102,5 %** ga yetdi.

Havo transportida yo'lovchi tashish xizmatlari bo'yicha qisqa muddatli INI iyul oyida **104,3 %** darajasida qayd etildi. Bu holat milly valyuta kursining yevroga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish xizmatlari bo'yicha INI 2023- yilning iyuniga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etdi.

**iyul**

## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,1 | 102,4 | |
| 2021- yil | 100,9 | 104,1 | 107,6 |
| 2022- yil | 100,2 | 104,8 | 107,0 |
| 2023- yil | 99,9 | 100,6 | 102,5 |

Axborot va kommunikatsiya uskunalari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning iyulida **99,9 %** darajasida qayd etildi.

Mazkur guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning iyul oyida **99,8 %** dan (televizor) **100,1 %** gacha (mustahkam o‘rnatilgan telefon uskunasi, perifirik uskunlar va ularning sarflash komponentlari) oraliqda joylashdi.

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 100,7 | |
| 2021- yil | 100,0 | 100,5 | 101,5 |
| 2022- yil | 100,1 | 100,4 | 100,9 |
| 2023- yil | 100,0 | 98,9 | 97,5 |

Axborotlashtirish sohasida kuzatiladigan asosiy xizmatlardagi barqarorlik fonida joriy yilning iyul oyida faqatgina axborot va kommunikatsiya uskunalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar narxlarida o‘zgarish qayd etilib, qisqa muddatli INI **100,5 %** ga yetdi.

2023- yilning iyul oyi davomida **0,1-0,5 %** atrofidagi narxlarning pasayishi ayrim turdagi kanselyariya tovarlari (maktab daftarlari, muqovalar, ruchka va qogʻoz) narxlarida qayd etildi.

Ushbu boʻlimdagi tovarlar va xizmatlar narxlarining oshishi **0,1 %** dan (sport uskunalari, bolalar uchun plastmassa oʻyinchoqlar) **1,4 %** gacha (konsert zallari xizmatlari) oraliqda qayd etildi.




### DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BOʻYICHA XIZMATLAR

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 101,0 | |
| 2021- yil | 101,1 | 105,7 | 109,6 |
| 2022- yil | 100,3 | 105,3 | 110,4 |
| 2023- yil | 100,3 | 105,7 | 109,5 |

### MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BOʻYICHA XIZMATLAR

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,2 | 102,9 | |
| 2021- yil | 100,5 | 104,9 | 108,0 |
| 2022- yil | 100,3 | 106,6 | 112,2 |
| 2023- yil | 100,5 | 108,8 | 113,3 |

### KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 102,2 | |
| 2021- yil | 100,5 | 102,8 | 103,5 |
| 2022- yil | 106,6 | 107,8 | 110,1 |
| 2023- yil | 100,5 | 117,8 | 118,0 |

### BOGʻDORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,2 | 104,9 | |
| 2021- yil | 98,4 | 100,7 | 104,2 |
| 2022- yil | 100,6 | 106,0 | 109,5 |
| 2023- yil | 100,3 | 104,5 | 108,6 |

### GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,2 | 105,2 | |
| 2021- yil | 100,3 | 103,4 | 108,8 |
| 2022- yil | 100,1 | 121,6 | 127,7 |
| 2023- yil | 100,0 | 103,9 | 110,9 |

### DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR

| | oʻtgan oyga nisbatan | oʻtgan yilning dekabriga nisbatan | oʻtgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,3 | 102,8 | |
| 2021- yil | 100,6 | 102,4 | 106,4 |
| 2022- yil | 100,7 | 106,2 | 110,1 |
| 2023- yil | 100,2 | 102,3 | 106,2 |

**iyul** | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM




## OLIY TA'LIM




## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM




| o'tgan oyga nisbatan | | | | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | | | | o'tgan yilning iyuliga nisbatan | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| **Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari** | | | | | | | | | | |
| - | 100,0 | 100,0 | 101,3 | - | 103,2 | 102,0 | 101,8 | - | 103,4 | 104,4 |
| **Repetitorlar xizmatlari** | | | | | | | | | | |
| 100,1 | 100,2 | 100,3 | 99,8 | 101,5 | 105,0 | 103,1 | 102,8 | 108,7 | 109,6 | 106,6 |
| **Chet tili kurslari va shunga o'xshash kurslarda o'qish** | | | | | | | | | | |
| 100,0 | 100,3 | 100,4 | 100,1 | 102,1 | 104,0 | 105,8 | 101,6 | 109,2 | 115,1 | 108,1 |

Izoh: xususiy MTT xizmatlarining narx o'zgarishi kuzatuvlari 2021- yildan tashkil etilgan.

Davlat MTT hamda oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning narxlari darajasida joriy yilning iyul oyida o'zgarishlar kuzatilmadi.

**iyul** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## MEHMONXONALAR XIZMATLARI




| o‘tgan oyga nisbatan | | | | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | | | | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| **Kafelardagi tayyor taomlar** | | | | | | | | | | |
| 100,0 | 100,5 | 100,8 | 100,7 | 106,8 | 105,2 | 110,1 | 112,0 | 113,9 | 120,0 | 127,0 |
| **Oshxonalar, kafeteriylar va boshqa oshxonalardagi tayyor taomlar** | | | | | | | | | | |
| 100,0 | 100,8 | 100,9 | 100,6 | 106,5 | 105,6 | 109,2 | 111,2 | 115,7 | 118,6 | 126,1 |
| **Otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari** | | | | | | | | | | |
| 100,7 | 100,3 | 100,1 | 100,6 | 106,1 | 106,0 | 107,0 | 108,1 | 108,7 | 111,2 | 118,9 |
| **Dam olish maskanlari va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari** | | | | | | | | | | |
| 101,7 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 115,6 | 117,3 | 115,3 | 124,3 | 120,3 | 116,1 | 124,9 |

Umumiy ovqatlanish sohasida joriy yilning iyul oyida to‘qqizta hududda narxlar o‘sishi kuzatilib, qisqa muddatli INI **100,2 %** dan **102,3 %** gacha chegarada qayd etildi.

Mehmonxonalar xizmati narxlari respublikaning to‘rtta hududida (**1,7-2,4 %** chegarasida) narxlar oshgan bo‘lsa, dam olish markazlari xizmati narxlari barqarorlikni saqlab qoldi.

# "SUG'URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR" BO'LIMI (XII), % DA

## SUG'URTA



| iyul | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,0 | 100,0 | |
| 2021- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| 2022- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| 2023- yil | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

## MOLIYAVIY XIZMATLAR



| iyul | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 103,8 | 106,0 | |
| 2021- yil | 98,8 | 100,4 | 101,2 |
| 2022- yil | 106,0 | 108,2 | 108,7 |
| 2023- yil | 100,2 | 101,8 | 102,5 |

Joriy yilning iyulida kuzatiladigan sug'urta xizmatlari bozoridagi narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida narxlar oshishi faqatgina banklar orqali pul yuborish xizmatlarida qayd etilib, joriy yilning iyul oyida qisqa muddatli INI **100,9 %** ni tashkil etdi.

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,3 | 106,2 | |
| 2021- yil | 100,5 | 106,0 | 111,8 |
| 2022- yil | 100,8 | 110,0 | 115,6 |
| 2023- yil | 100,3 | 105,9 | 113,8 |



Joriy yilning iyulida guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,8 %** dan (soch bo‘yoqlari), **101,1 %** gacha (erkaklar sartaroshxonalari xizmatlari) oraliqda joylashdi.

## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,2 | 103,2 | |
| 2021- yil | 100,3 | 102,6 | 108,4 |
| 2022- yil | 100,3 | 105,7 | 109,3 |
| 2023- yil | 100,4 | 103,7 | 107,9 |



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning iyulida **100,8 %** dan (ayollar sumkalari), **101,1 %** gacha (soatsozlar xizmatlari) oraliqda joylashdi.

## BOSHQA XIZMATLAR

| iyul | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning iyuliga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- yil | 100,1 | 103,1 | |
| 2021- yil | 100,1 | 110,4 | 111,2 |
| 2022- yil | 100,4 | 108,0 | 115,9 |
| 2023- yil | 100,3 | 107,8 | 93,6 |




Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning iyulida narxlar oshishi nusxa ko‘chirish bo‘yicha (**102,1 %**) va diniy xizmatlarda (**100,1 %**) qayd etildi.

**Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.**

**Narx indeksi salmog‘i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:**

**- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;**

**- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;**

**- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.**

**Oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d. — -0,16 f.d.**

**-0,40 f.d.** — Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

**+0,03 f.d.** — Sog‘liqni saqlash

**+0,01 f.d.** — Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

**+0,07 f.d.** — Transport

**+0,02 f.d.** — Kiyimlar va poyabzal

**+0,01 f.d.** — Dam olish, sport va madaniyat

**+0,06 f.d.** — Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

**+0,01 f.d.** — Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari

**+0,02 f.d.** — Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish

**+0,01 f.d.** — Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar

“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limida narxlarning pasayishi joriy yilning iyulidagi oylik INIni tutib turvchi asosiy omil sifatida xizmat qilib, bu o‘z navbatida, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhidagi narlarning mavsumiy pasayishi bilan birga, “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” va “Shakar, qandolat mahsulotlai va desertlar” guruhlaridagi narxlar pasayishi bilan bog‘liqdir.

# 2023- YIL IYUL OYIDA O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI, F.D.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar
+1,09 +4,01

Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari
+0,06 +0,11

Kiyim va poyabzal
+0,27 +0,76

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari
+0,25 +0,51

Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish
+0,28 +0,63

Sog‘liqni saqlash
+0,41 +1,02

Transport
+0,33 +0,64

Axborot va aloqa
-0,02 -0,03

Dam olish, sport va madaniyat
+0,14 +0,26

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar
0,00 +0,06

Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari
+0,23 +0,49

Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar
+0,01 +0,01

Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar
+0,24 +0,47

+3,29 2022- yilning dekabriga nisbatan
+8,94 2022- yilning iyuliga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga ta’sir tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar ta’siri ulushi uchdan bir qismni tashkil etdi. Ularning ta’siri **1,09 f.d.**ni, yoki **33,1 %** ni tashkil etdi. “Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimklar narxlari oshishining o‘tgan yilning iyuliga nisbatan yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur’atiga ta’siri ulushi **44,9 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-iyulidagi INIdagi kabi aloqa xizmatlari narxlarining pasayishi yillik INIni ham tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi.